



“O`ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ILK VA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RIVOJLANISHIGA QO`YILGAN DAVLAT TALABLARI”DAGI

“Bilish jarayonining rivojlanishi” sohasi
Toshkent pedagogika texnikumi o`qituvchisi
Karimova Dilbar Tashpulatovna

Annotatsiya: *Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg`ulotlar jarayonida yoki rivojlanuvchi markazlarda olingan bilimlar “O`zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo`yilgan Davlat talablari”dagi barcha rivojlanish sohalari shu bilan birga “Bilish jarayonining rivojlanishi” sohasining boshqa kichik sohalari bilan ham bog`liq holda ya`ni integratsiya asosida olib boriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim va tarbiya jarayonining maqsadi bolaning tayanch kompetensiyalari va rivojlanish sohaslarining kompetensiyalarini shakllantirish uchun shart-sharoitlarni yaratishdir.*

“Bilish jarayonining rivojlanishi” sohasi quyidagi kichik sohalarga bo`linadi.

1.Kichik soha: Intellektual-bilish malakalari

Talab: Bola qiziquvchan, intiluvchan, faol, bilishga qiziqish bildiradi va unga ehtiyoji mavjud.

2.Kichik soha: Elementar matematik malakalar.

Talab: Bola elementar matematik malakalarga ega.

3.Kichik soha: Tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat.

Talab: Bola o`zining tabiiy muhitiga qiziqishini namoyon qiladi, fanni o`rganishda faol.

Bilish kompetensiyasi — atrofda olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko`nikma, malaka va qadriyatlardan o`quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanishdir. Bolalarning tafakkurini rivojlantirishda ayniqsa ularning matematik tushunchalarini rivojlantirish, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o`stirishga shu bilan birga ularning aqliy va psixik qobiliyatlarini oshirishga qaratilgan.

“O`zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo`yilgan Davlat talablari”ning “Bilish jarayonining rivojlanishi” sohasi (6-§) kompetensiyalarida „Bilish jarayonining rivojlanishi sohasidagi o`quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so`ng 6-7 yoshli bola:

bilim olishga faol qiziqishni namoyon etadi;

o`quv va hayotiy faoliyat uchun axborotni mustaqil ravishda topadi va undan foydalanadi;

predmetlar, voqealar va ko`rinishlar o`rtasidagi oddiy aloqalarni tushunadi va ularni yaxlit bir butunlik sifatida idrok qiladi;

raqamlar, hisob-kitobni biladi va ularni hayotda qo`llaydi;



makon, shakl va vaqtga mos ravishda ish tutadi;
elementar matematik hisoblashlarni amalga oshiradi;
atrof muhitdagi voqea-hodisalar va ko'rinishlarni kuzatadi hamda tadqiq qiladi;
atrof muhitga nisbatan ehtiyotkorona va g'amxo'r munosabatni namoyon etadi”-deyilgan.

Integrallashtirilgan mashg'ulotlarning maqsadi - bu bolalar uchun ijodiy, badiiy, o'yinchoq, mavjud bo'lgan faoliyat turlari bilan konseptsiya, ob'yekt yoki hodisani keng qamrovli, ongli ravishda o'rganishdir. Maktabgacha ta'lim jarayonining quyidagi fa'oliyat shakllarida integral loyihalashga asoslangan ta'limni amalga oshirish mumkin:

•markazlardagi faoliyat •frontal mashg'ulotlar; •ta'limiy o'yinlar; •sayr;

Tayanch soʻz va iboralar:

1.Rivojlanish sohasi — bola rivojlanishidagi aniq bir yoʻnalishlar;

2.Kichik soha — sohaning kichik guruhlari. Asosiy sohalarning kichik sohasi rivojlanishning maʼlum bir tomonlarini oʻz ichiga qamrab oladi va ularning aniq bir yoʻnalishini koʻrsatib beradi;

3.Integratsiya — bola taʼlimi va rivojlanishidagi mazmun tarkibiy qismlari oʻrtasidagi bogʻliqlik; **Integratsiya** atamasi lotincha *integratio* - tiklash, toʻldirish, integer - butun soʻzlaridan kelib chiqqan.

4.“Men” konsepsiyasi — bolaning oʻzi haqidagi anglangan tasavvurlari tizimi, uning refleksiv faoliyatining bir qismi.

5.Kognitiv-soʻzi inglizcha (lotin) “*cognize*” soʻzidan olingan boʻlib, u bilmoq, anglamoq, tushunmoq va fikrlamoq yoki “*cognition*” –bilish, tushunish kabi maʼnolarni beradi. Oʻz oʻrnida bilish faoliyati inson voqelikni bevosita sezish, his etishi bilan bogʻliq hodisadir.

6.Intellekt (lotincha: *intellects* — bilish, tushunish, idrok qilish) — insonning aqliy qobiliyati; hayotni, atrof muhitni ongda aynan aks ettirish va oʻzgartirish, fikrlash, oʻqish-oʻrganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati; turli masalalarni hal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqea-hodisalarni oldindan koʻra bilish layoqati. Intellekt tarkibiga idrok qilish, xotirlash, fikr yuritish, soʻzlash va h.k. psixik jarayonlar kiradi. Intellektning rivojlanishi tugʻma isteʼdod, miya imkoniyatlari, joʻshqin faoliyat, hayotiy tajriba kabi ijtimoiy omillarga bogʻliq.

Maktabgacha taʼlim bolaning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish uchun asos boʻlib xizmat qiladi. U taʼlimning keyingi bosqichlarida, shuningdek, butun hayoti davomida rivojlanib boradi. “Ilk qadam” Davlat oʻquv dasturi kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan. Bu maktabgacha taʼlim va tarbiya

jarayonida bolalar faoliyatining turli-tuman turlarida shakllanadigan kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan.

Kompetensiya – bolaning bilim, koʻnikma, malaka va qadriyatlarini majmuidir.



Kompetentli bola o'z bilim, ko'nikma va malakalarini muayyan vaziyatda safarbar qilishi va qo'llashi, o'z maqsadiga erishishi va rivojlanishning har bir bosqichida yoshiga mos keladigan vazifalarni hal qilishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv bolalarning **bilish** bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlari, muammolar va imkoniyatlarga samarali javob berish qobiliyatini shakllantirish, axloqiy me'yorlar va qadriyatlarini rivojlantirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, shaxsiy ("Men" konsepsiyasi) ni shakllantirishni o'z ichiga oladi.

“O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan Davlat talablari”da “Bilish jarayonining rivojlanishi” sohasi ya'ni **1-kichik soha: Intellektual-bilish malakalari**, 2-Kichik soha: Elementar matematik malakalar 3-kichik soha: Tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat-bularda bolalarni intellektini rivojlantirish, tabiat va tevarak-atrof bilan tanishtirish bo'yicha ham talablar qo'yilgan. Elementar matematika mashg'ulotlarida berilgan bilimlar bu sohalarda ham takrorlanadi va rivojlantiriladi.

Masalan: **1.Kichik soha: Intellektual-bilish malakalari. Talab: Bola qiziquvchan, intiluvchan, faol, bilishga qiziqish bildiradi va unga ehtiyoji mavjud.**

Maktabga tayyorlov guruhida “Bolalarni arifmetik masalalar tuzish va yechishga o'rgatish” mavzusini o'rganilganda avval bolalarga oddiy masalalar tuzish va yechish o'rgatiladi. Bolalar ancha masalalar tuzish va yechishni o'rganib olganlaridan keyin ular bilimlari va intellektlarini rivojlantirish maqsadida iqtisodiy, sh'eriylar va mantiqiy-chalg'iluvchi masalalar, rasmlilarni tuzish va yechish o'rgatiladi. Bolalar uchastkadagi gullarning o'sishini kuzatadilar va kecha bog'dagi gulda ikkita yaproq o'sib chiqqanligini, bugun esa yana bitta yaproq o'sib chiqqanini qayd qiladilar. Tabiat hayotidagi o'zgarishlar bolalar oldiga har xil masalalarni qo'yadi, shu masalalar orasida arifmetik masalalar ham bor.

Kichik soha: Elementar matematik malakalari, **Talab:** Bola elementar matematik malakalarga ega.

MTT-da vaqt tushunchasida sutka qismlari, yil fasllari, hafta kunlari kabi mavzularda masalan yil fasllaridagi o'zgarishlar haqida tabiat mashg'ulotlarida bilim berilsa, vaqt va vaqt o'lchovlari haqida matematika mashg'ulotlarida bilim beriladi. (Soat, daqiqa, ertalab, kunduzi, kechqurun, kun-tun, yilda to'rt fasl borligi va ular ketma-ket kelishi vxk). Vaqt etalonlarini bilish, vaqt munosabatlarini aniqlay bilish bolalarga sodir bo'lgan voqealarni, ular o'rtasidagi sabab-oqibat bog'lanishlarining izchilligini tushinib olishga yordam beradi.

Tayyorlov guruhida bolalarni soat bilan tanishtirish bo'limi kiritilgan. Soat haqida bolalarga tushuncha berishda soat va uning kelib chiqish tarixi, soat turlari va uning inson hayotidagi o'rni, soat haqida, uning strelkasi sifr holatining vazifasi, soat va uning ishlatilishi bilan tanishtiriladi. Soatdan yarim soat aniqlikda foydalanishga o'rgatiladi. Undan tashqari ertalab, kunduzi, kechqurun, kun-tun,



hafta (kalendar), yil, yilda to`rt fasl borligi va ular ketma-ket kelishi ham matematika mashg`ulotlarida yoki rivojlantiruvchi markazlardagi faoliyatlarda, kun davomidagi faoliyatlarda ham o`rgatilishi mumkin.

3.Kichik soha: Tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat. **Talab:** Bola o`zining tabiiy muhitiga qiziqishini namoyon qiladi, fanni o`rganishda faol.

Tayyorlov guruhlarida bolalarni fikrlash, o`z-o`zini kuzatish, tushunish, o`z ishining shartlari va natijalarini baholashga o`rgatishda matematika mashg`ulotida “Suyuq va sochiluvchan jismlarni o`lchashga o`rgatish”da bolalarga tajriba yo`li bilan suyuqliklarni va sochiluvchan jismlarni o`lchash ko`rsatilishi va bolalarga bajartirilishi mumkin.

Masalan:Ikki hil grafin olinadi. Grafinlar hajmi har xil. Unga bolalardan “o`lchov birligi” qilib nimani olishimiz mumkinligi so`raladi. “Stakan” grafindagi suyuqlik hajmini o`lchash uchun “o`lchov birligi” qilib tanlanadi. Ikki xil grafindan bolalar stakanga suyuqlik solganlarida Alisherda birinchi grafinda to`rt stakan Nargizada esa xuddi shu grafindagi suyuqlik miqdori uch-yarim stakan chiqadi, Muammoli vaziyat bu qanday bo`lishi mumkin? Faoliyatni boshlashga muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirilib, shu tarzda yechim izlashda guruhning birdamligi hissi paydo bo`ladi, mavjud vaziyatni tahlil qilishda aqliy qobiliyatlar faollashtiriladi. Bunda stakanga grafindan suyuqlik har xil hajmda solingan biri to`laroq, biri kamroq shuning uchun bitta grafindagi suyuqlik miqdori har xil bo`lgan. Hisob to`g`ri bo`lishi uchun stakanning yuqori qismiga qizil qalamda belgi (merka) qilib qo`yamiz, suyuqlik ana shu belgigacha quyiladi. Birinchi grafindagi suyuqlikni stakanning belgisigacha solinadi va tarbiyachi bir deydi, bola oldiga bitta qizil kubikni qo`yadi. Suyuqlik bo`sh idishga bo`shatiladi. Ish shu usulda davom etadi. Ikkinchi grafindagi suyuqlik hajmi o`lchanganda ko`k rangli kubik bilan bolalar suyuqlik hajmini o`lchashadi. Ikkala grafindagi suyuqlik hajmi o`lchab bo`lingach bolalar oldilaridagi kubiklar miqdoriga ko`ra qaysi grafinda suyuqlik hajmi ko`proq ekanligini aniqlaydilar.

Tarbiyachi suyuqlik va sochiluvchan jismlarning hajmini aniqlash usullarini bolalarga o`rgatayotib, shuningdek nima o`lchanishini oldindan aniqlashga, o`lchash uchun nima zarur, o`lchovni qanday qilib to`ldirish, qayergacha o`lchash kerakligini belgilashga o`rgatadi.

Boshida uzunlik va hajmlarni o`lchashda har bir o`lchovga muvofiq (necha marta o`lchanganligini unutib qo`ymaslik uchun) biror bir o`lchov xisobini olib borish uchun narsalar (mayda o`yinchoqlar, kubiklar...) qo`yib chiqiladi. O`lchov natijalarini taqqoslash o`lchovlarni birma-bir, shuningdek ularni sanash hamda solishtirish asosida o`tkaziladi.

Elementar matematika mashg`ulotlarida barcha sohalar integratsiyasi yordamida beriladigan bilimlarning turli qismlarini birlashtirib, mashg`ulot davomida ma`lum masala yoki topshiriq (qiziqarli boshqotirmalar,) berilganda o`rganilayotgan bilimlarni mustahkamlash, masalani yoki topshiriqni mustaqil yechish ko`nikmasini



rivojlantirilib, muammoni yaqindan ko`ra bilish va uni yecha olish, olingan natijalardan masalani yechish jarayonida foydalanishni bilish uchun imkon yaratiladi.

Integratsiyalashgan mashg`ulotlarga asosiy e'tibor hodisalar va ob'ektlar o'rtasidagi munosabatlar haqidagi bilimlarni o'zlashtirishga emas, balki xayoliy fikrlashni rivojlantirishga qaratiladi. Integratsiya bolalarni mashg`ulot davomida turli faoliyat turlariga o'tkazish orqali taranglik, ortiqcha yuk va charchoqdan xalos bo'lishga yordam beradi. Shaxsiy rivojlanish nuqtai nazaridan integratsiya quyidagilar uchun sharoit yaratadi:

- Tushunishning yuqori darajasiga erishish;
- bilishning individual-shaxsiy apparatini takomillashtirish;
- fikr erkinligini rivojlantirish;
- O`quvchilar ijodiyotini shakllantirish.

Bilish jarayonining rivojlanishi sohalari va unga kiruvchi kichik sohalardan aynan elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish faniga tegishli talablarni Davlat talablaridan o`rganildi: MTT-larda bolalarga elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish mashg`ulotlari frontal tarzda berilib bunda bolalar son-sanoq, geometrik shakllar, miqdor va kattaliklar, tevarak-atrofdan mo`ljallanish, vaqt, va qurish-yasash haqida boshlang`ich bilimlarni oladilar.

Bilish jarayonining rivojlanishi sohalari va unga kiruvchi kichik sohalardan bolalarni tabiat bilan tanishtirish faniga tegishli talablarni Davlat talablaridan o`rganildi: Bunda jonli va jonsiz tabiat, Yer kurrasi to`g`risida tasavvurga ega bo'lish; Fasllar almashinishi va ob-havodagi ayrim o`zgarishlar (yomg`ir, qor yog`ishi, quyosh charaqlab turishi)ni payqashlari va tabiatni muhofaza qilish, ekologiya haqida dastlabki tushunchaga ega bo'lishlari; jonsiz tabiatning ayrim xususiyatlari (tosh qattiq, qum-sochiluvchan)ni farqlay olishlari; predmetlarni kuzatadi, oddiy tajribalar (cho`kadi-cho`kmaydi, yiriladi-yirtilmaydi) o'tkazishni; tabiat hodisalarining turli omillarga bog`liqligini tushunadi; tabiatdagi o'zgarishlar sababini tushuntirib bera oladi; insonlarning atrof olamga ta'sirini tushunadi (ekin ekish, hosil yig`ish); insonlar hayotida tabiatning ahamiyatini anglab yetadi.

“Bilish jarayonining rivojlanishi” sohasi va kichik sohalardan “Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish”da va „Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda“ **“Intellektual-bilish malakalari”** va “Tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat” sohalari integratsiyasini hisobga olgan holda faoliyatlarni samarali rejalashtirilsa quyidagi natijalarga erishiladi:

1. “Bilish jarayonining rivojlanishi” sohasi va kichik sohalari integratsiyalashgan mashg`ulotlarga asosiy e'tibor hodisalar va ob'ektlar o'rtasidagi munosabatlar haqidagi bilimlarni o'zlashtirishga emas, balki aqliy, ahloqiy, intellektual fikrlashni rivojlantirishga qaratiladi.

2. Integratsiya bolalarni mashg`ulot davomida turli faoliyat turlariga o'tkazish orqali taranglik, ortiqcha yuk va charchoqdan xalos bo'lishga yordam beradi.



3. Integratsiyalashgan mashg`ulotlar shaklida umumiy mashg`ulotlar, mashg`ulotdan tashqari faoliyatlar, rivojlantiruvchi markazlardagi faoliyatlar va matematik mazmundagi “Quvnoqlar va zukkolar” musobaqali o`yinlarni o`tkazish yaxshi samara beradi.

4. Bolaning aqliy qobiliyati; hayotini, atrof muhitni ongda aynan aks ettirish va o`zgartirish, fikrlash, o`qish-o`rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati; turli masalalarni hal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqea-hodisalarni oldindan ko`ra bilish layoqati rivojlantiradi.

Davlat talablari esa rivojlanish sohalari integratsiyasini nazarda tutadi va bola rivojlanishiga ko`maklashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo`yiladigan Davlat talablari” O`RMTV Toshkent-2020 (802-qaror)
2. “Ilk qadam” Davlat o`quv dasturi O`RMTV Toshkent-2022.
3. Avt: N.U. Bikbayeva “Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish” o`quv qo`llanma. “O`qituvchi” Toshkent-1995.

INTERNET MANBALARI:

1. <http://kompy.info/himoyaga-tavsiya-etilsin.html?page=12><https://uz.wikipedia.org/wiki/Intellekt>
2. <https://izoh.uz/uz/word/kognitiv>